

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR**  
**BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**GIYAZOVA NOZIMA BAYAZOVNA**

**TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA**  
**RAQOBAT STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economic Sciences**

**Giyazova Nozima Bayazovna**

To'qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyasidan foydalanishni  
takomillashtirish .....3

**Гиязова Нозима Баязовна**

Совершенствование использования конкурентных стратегий в развитии  
текстильных предприятий .....25

**Giyazova Nozima Bayazovna**

Improving the use of competitive strategies in the development of textile  
enterprises.....47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR**  
**BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**GIYAZOVA NOZIMA BAYAZOVNA**

**TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQOBAT  
STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Iqt2475 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponentlar:**

**Boltabayev Maxmudjon Rustamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Akbarov Nodir G'ofurovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan muhandislik–texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Kutubxonasida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**G.Q.Abduraxmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**O.Dj.Djurabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.f.d., (PhD)

**Sh.J.Ergashxodjayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon bozorida aholining keng iste'mol tovarlari tarkibiga kiruvchi to'qimachilik mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlashning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, "Yengil sanoat hissasiga dunyo sanoat ishlab chiqarishining 5,8 % i, band bo'lganlarning 14,0 % dan ortiqrog'i to'g'ri keladi. So'nggi 15 yil davomida to'qimachilik materiallari va kiyim-kechak iste'mol qilish Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlarida 90,5% ga, AQSHda – 99,3% ga va Yaponiyada – 220,0% ga o'sgan"<sup>1</sup>. Shu jihatdan raqobat ustunligi asosida to'qimachilik korxonalarini barqaror rivojlanish bo'yicha marketing strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jahon to'qimachilik mahsulotlari bozorida raqobat darajasi, sifatni boshqarish, strategik maqsadlar asosida innovatsion marketingni tashkil etish, to'qimachilik mahsulotlarini sotishning samarali innovatsion siyosatini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ayniqsa, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish, sifat menejmenti tizimini joriy etishning yangi usullarini yaratish, to'qimachilik mahsulotlari konyunkturasi o'rganish yo'nalishlaridagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usulidan samarali foydalanish asosida tayyor va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ayniqsa, jahon bozorlarida raqobatbardosh tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning eksport salohiyatini oshirish, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish"<sup>2</sup> vazifasi belgilangan bo'lib, mazkur vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi respublika to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu borada milliy to'qimachilik korxonalarini barqaror rivojiga strategik omillar ta'sirini baholash yondashuvlarini takomillashtirish, tovarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalari va moslashuvchan raqobat strategiyalarini ishlab chiqish, to'qimachilik korxonalarida strategik raqobat ustunligini ta'minlaydigan barqaror rivojlantirish tadbirlari samaradorligini oshirishda xodimlarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor

---

<sup>1</sup> [www.oecd.org](http://www.oecd.org)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 6-martdagi PQ-4633-son "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 16-sentyabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 31-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 253-sonli qarori "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Barqaror rivojlanishda marketing konsepsiyasi va strategiyasi masalalari bilan xorijlik olimlardan: Aaker D., Azoyev G.L., Ansoff I., Assel G., Doyl P., Kotler F., Lamben J.J., Mintsberg G., Alstrend B., Lempel D., M. Porter., Torado M.P., Chandler A.D., Xoffer K.V., Shendel D. va boshqalar shug'ullangan<sup>3</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida sanoat korxonalari barqaror rivojlanishida raqobat strategiyasini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmlarining nazariy asoslari: Bezrukova T.L., Belenov O.N., Godin A.M., Golubkov Ye.P., Grigoryev M. N., Yegorov Yu.N., Kozlova Ye.P., Korneyeva I.V., Xrutskiy V.E., Kutsenko Ye.I., Naumov V.N., Shkardun V.D. tomonidan o'rganilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup>Aaker D. Стратегическое рыночное управление / Д. Аакер. - 7-е изд. / Пер. с англ. под ред. С.Г. Божук. - СПб.: Питер, 2011. - 496 с.; Азоев Г. Л. Конкуренция: анализ, стратегия и практика. - М.: Центр экономики и маркетинга, 2016. - 208 с.; Ансофф И. Стратегическое управление / Пер. с англ. - М.: Экономика, 2002. - 416 с.; Ассель Г. Маркетинг: принципы и стратегия. - М.: ИНФРА-М, 2019. - 804 с.; Дойль П. Маркетинг, менеджмент и стратегии. / Дойль П.; пер. с англ. - СПб.: Питер, 2017. - 544 с.; Котлер Ф. Маркетинг менеджмент / Ф. Котлер, К. Л. Келлер. - 15-е изд. - Санкт-Петербург [и др.]: Питер, Прогресс книга, 2020. - 844 с.; Ламбен Ж.-Ж. Стратегический маркетинг. Европейская перспектива: пер. с фр. -СПб.: Наука, 2016. - 589 с.; Минцберг Г., Альстрэнд Б., Лэмпел Д. Школы стратегий / Пер. с англ.; Под ред. Ю. Н. Каптуревского. - СПб.: Питер, 2011. - 336 с.; Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. -М.: Альпина Бизнес Букс, 2015. - 454с.; Торадо М.П. Экономическое развитие: учебник / пер.с англ. Под ред. С.М.Яковлева, Л.З.Зевина. -М.: Экономический факультет МГУ, ЮНИТИ, 2017. - 671 с.; Chandler A.D. Strategy and Structure. - Cambridge, Mass: MIT Press, 2012.; Hoffer C.W. and Shendel D. Strategy Formulation: Analytical Concepts. St. Paul, MN: West Publishing Company, 2018.

<sup>4</sup>Безрукова Т.Л. Формирование механизма устойчивого развития предприятия: факторный анализ, контроллинг, моделирование: монография /Т.Л. Безрукова. - М.: МГУЛ, 2012. - 252 с.; Беленов О.Н.

O'zbekistonda marketing tizimini takomillashtirishning umumiy jihatlari va to'qimachilik korxonalarida marketing strategiyasini shakllantirish masalalari mahalliy olimlarimizdan S.S.G'ulomov, A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltaboyev, M.A.Ikramov, S.A.Salimov, Sh.Dj.Ergashxodjayeve, M.S.Qosimova, M.A.Yusupov, S.Sh.Yusupov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan<sup>5</sup>.

Shuni ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida raqobat ustunligi sharoitida to'qimachilik korxonalarini barqaror rivojlantirishda raqobat strategiyasidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqobatbardosh turistik hudud va klasterlarni shakllantirish asosida O'zbekistonda turizmni davlat miqyosida barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** to'qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ishlab chiqarish korxonalarini rivojlanishida marketingning vosita va usullaridan foydalanish jihatlari ochib berish;

marketing amaliyotida raqobat nazariyasining mohiyatini ochib berish va uning korxonani rivojlantirishdagi ahamiyatini baholash;

to'qimachilik sanoati korxonalarida raqobat strategiyalarini shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganish;

---

Стратегический маркетинг. – Воронеж: Издательство ВГУ, 2018. – 278 с.; Годин А.М. Маркетинг: учебник для студентов вузов. – М.: Дашков и К<sup>о</sup>, 2019. – 651 с.; Голубков Е.П. Стратегический менеджмент: учебник и практикум для академического бакалавриата / Е.П.Голубков. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 290 с.; Григорьев М. Н. Маркетинг: учебник для вузов / М. Н. Григорьев. – 5-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 559 с.; Егоров Ю.Н. Основы маркетинга: учебник / Ю.Н. Егоров. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: ИНФРА-М, 2021. – 292 с.; Козлова Е.П. Формирование механизма устойчивого развития промышленных предприятий на основе технологической трансформации. 08.00.05. дисс.... канд. экон. наук. Нижний Новгород, 2019. - 181с.; Корнеева И. В. Маркетинг: учебник и практикум для вузов / И. В. Корнеева, В. Е. Хруцкий. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 436 с.; Куценко Е.И. Организационно-экономический механизм устойчивого развития региона: монография. – Оренбург: Litres, 2017. – 224с.; Шкардун В.Д. Маркетинговые основы стратегического планирования: теория, методология, практика: Монография. – М.: Дело, 2015. – 376 с.; Наумов В.Н. Стратегический маркетинг: учебник / В.Н. Наумов. — 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : ИНФРА-М, 2020. – 356 с.

<sup>5</sup>G'ulomov S.S. Marketing asoslari. – T.: Sharq, 2002. – 254 b., Soliyev A. Marketing. Bozorshunoslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010; Бекмуратов А.Ш., Янг Сонг Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Ташкент: ТГЭУ. 2006. – 112 с.; Boltaboyev M.R. To'qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. Monografiya. – T.: FAN, 2004. – 223 b.; Икромов М.А., Салимов С.А. Международный маркетинг: учеб. Пособие для ВУЗов. – Т.: Изд-во Нац. Библ. Узбекистана им. А. Навои, 2010. – 276 с.; Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T., 2019. – 361 b., Ergashxo'jayeva Sh.J. Strategik marketing: Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2019. – 232 b.; Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. IFFD (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. - Toshkent: TDIU, 2018. – 24 b.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati rivojlanishining hozirgi holati va muammolari tahlilini amalga oshirish;

to‘qimachilik sanoati korxonalari strategik mavqei va raqobatbardoshligini tahlil qilish;

to‘qimachilik korxonalarining strategik raqobat afzalliklari asosida rivojlanishini baholash usullarini takomillashtirish;

to‘qimachilik korxonalari rivojlanishida raqobat strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish;

to‘qimachilik korxonalari raqobat strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda motivlashtirish mexanizmini takomillashtirish va uni prognozlashni amalga oshirish;

to‘qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi to‘qimachilik korxonalarining marketing faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** to‘qimachilik korxonalarida raqobat strategiyalaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, kabinet va dala tadqiqoti, tanlanma kuzatuv, grafik talqin, integral baholash, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra to‘qimachilik korxonalarini boshqarishda marketing yondashuvini amalga oshirishda strategik marketing sifatida talqin etiluvchi “marketing strategiyasi” tushunchasi tashqi muhit o‘zgarishlariga korxonaning ichki imkoniyatlarini moslashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari majmuasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

to‘qimachilik korxonalarining strategik va taktik raqobat ustunliklarini hisobga olgan holdagi barqaror rivojlanishiga ta’sirining integral oraliq natijalari (yuqori [0,8;1]; normal [0,6;0,8]; past [0,3;0,6]) chegaralari doirasidagi yondashuviga ko‘ra, strategik raqobat ustunliklarining to‘qimachilik sanoati korxonasining rivojlanishini ta’minlashga ta’sirini diagnostik baholash taklif etilgan;

raqobat xaritasini tuzish asosida to‘qimachilik korxonasi rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan uchta sohada fokuslashtirilgan o‘shish strategiyasini hamda uchta bozor mavqei sohasida raqobat strategiyalarini amalga oshirishni uyg‘unlashtirish taklifi asoslangan;

to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik modeli asosida “KAMALAK SHABNAM TEKS” to‘qimachilik korxonasining mahsulot sotishdan umumiy tushumi hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:



“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining strategik raqobat ustunligi va rivojlanish samaradorligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro miqdoriy bog‘liqlikni aniqlash asosida mahsulot sotishdan olinadigan yalpi daromadni oshirish imkonini beruvchi marketing strategiyalarini shakllantirish asoslangan;

to‘qimachilik sanoati korxonalarining raqobat ustunliklarini tizimlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik korxonasining strategik mavqeini SPACE-tahlil usuli yordamida baholashning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

to‘qimachilik korxonasida marketing samaradorligini baholash usuli ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik korxonasi barqaror rivojlanish darajasiga strategik raqobat ustunligi ta‘sirining modeli ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik korxonalarini barqaror rivojlanish darajasiga omillar ta‘siri sababini o‘rganish uslubi ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik sanoati korxonalarining raqobat ustunliklari ahamiyatini baholash shkalasi ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik korxonasi bozori raqobat xaritasini shakllantirish matritsasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** to‘qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish yuzasidan olingan natijalarning rasmiy nashriyotlar tomonidan, taniqli xorijiy va O‘zbekiston olimlari tadqiqotlari natijalari bo‘yicha chop etilgan manbalarni o‘rganish va tahlili, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarining buxgalteriya va statistik hisobotlari ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati to‘qimachilik sanoati korxonalarining raqobat ustunliklarini tizimlashtirish bo‘yicha takliflar, marketing samaradorligini baholash usuli, barqaror rivojlanish darajalarini baholash mezonlari, to‘qimachilik korxonasi barqaror rivojlanish darajasiga strategik raqobat ustunligi ta‘sirining modeli, barqaror rivojlanish darajasiga omillar ta‘siri sababini o‘rganish uslubi, raqobat ustunliklarining ahamiyatini baholash shkalasi, to‘qimachilik korxonasi bozori raqobat xaritasini shakllantirish matritsasi hamda boshqa amaliy natijalar respublika to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda korxonalar faoliyatida uni amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to‘qimachilik korxonalarida raqobat ustunligi sharoitida barqaror rivojlanish faoliyatining samaradorligini oshirish

orqali yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarish sohasida samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish, shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta‘lim tizimi uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** To‘qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra to‘qimachilik korxonalarini boshqarishda, marketing yondashuvini amalga oshirishda, strategik marketing sifatida talqin etiluvchi “marketing strategiyasi” tushunchasi tashqi muhit o‘zgarishlariga korxonaning ichki imkoniyatlarini moslashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari majmuasi nuqtai nazaridan takomillashtirish yuzasidan nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Marketing kommunikatsiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 09-sentabrdagi 302-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda tashqi muhit o‘zgarishlariga korxonaning ichki imkoniyatlarini moslashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari majmuasi sifatidagi “marketing strategiyasi” tushunchasi yuzasidan mavjud nazariy-uslubiy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

to‘qimachilik korxonalarining strategik va taktik raqobat ustunliklarini hisobga olgan holdagi barqaror rivojlanishiga ta‘sirining integral oraliq natijalari (yuqori [0,8;1]; normal [0,6;0,8]; past [0,3;0,6]) chegaralari doirasidagi yondashuviga ko‘ra strategik raqobat ustunliklarining to‘qimachilik sanoati korxonasining rivojlanishini ta‘minlashga ta‘sirini diagnostik baholash taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2023-yil 19-apreldagi 03/25-776-son ma‘lumotnomasi). Natijada “BUXORO ZARHAL TEKS” MCHJ to‘qimachilik korxonasi barqaror rivojlanish darajasini tavsiflovchi umumiy integral koeffitsiyentini 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 0,3357 bandga oshirish imkoni yaratilgan;

raqobat xaritasini tuzish asosida to‘qimachilik korxonasi rivojlanishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan uchta sohada fokuslashtirilgan o‘sish strategiyasini hamda uchta bozor mavqei sohasida raqobat strategiyalarini amalga oshirishni uyg‘unlashtirish taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2023-yil 19-apreldagi 03/25-776-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “KAMALAK SHABNAM TEKS” MCHJ to‘qimachilik korxonasining eksport hajmini 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 4,48 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir qiluvchi omillarning ekonometrik modeli asosida “KAMALAK SHABNAM TEKS” to‘qimachilik

korxonasining mahsulot sotishdan umumiy tushumi hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatini istiqbol baholashda foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023-yil 19-apreldagi 03/25-776-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uyushma tarkibidagi korxonalar, jumladan, "KAMALAK SHABNAM TEKS" MCHJ to'qimachilik korxonasini 2030-yilga qadar rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 137 betdan iborat.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**To'qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishini ta'minlashda marketingning ahamiyati asoslab berilgan, to'qimachilik sanoati korxonalarida marketing strategiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, raqobat nazariyasining mohiyati, to'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlanishini ta'minlashda raqobat strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishini ta'minlashda marketing tamoyillaridan foydalanish, samarali marketing tadqiqotlari natijalari asosida istiqbolda barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim rolni o'ynaydi. Marketingning evolyutsion taraqqiyotida bir qancha konsepsiyalar ham ishlab chiqilgan bo'lib, so'nggi yillarda raqamlashtirish texnologiyasining amaliyotga keng joriy etilishi munosabati bilan internet-marketing konsepsiyasi shakllandi hamda uni amaliyotga qo'llash natijasida mobil, virus, partizan marketing va blog-marketing kabi marketing turlari ham paydo bo'ldi.

Nashrlar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy fanda "barqaror iqtisodiy rivojlanish" konsepsiyasi har xil ilmiy maktablar va ayrim mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan tez-tez murojaat qilinishiga qaramay, yaxshi tushunilmaganligi bilan murakkablashmoqda. Dissertatsiya tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, hozirda konsepsiyaning rivojlanishi jarayonida "Barqaror rivojlanish" uch jihatdan ko'rib chiqila boshlandi: ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy. "Barqaror rivojlanish" tushunchasi qaysi nuqtai nazardan kelib chiqishidan qat'iy nazar, har doim ham uchta jihatida inson faoliyatining barcha sohalarini o'z ichiga olgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan mexanizmi topish yoki rivojlantirish vazifasi doimo mavjud. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi tadqiqotchilar tomonidan uch jihatdan ko'rib chiqilganiga qaramay, ko'plab mualliflar uni ta'minlash mexanizmi yagona, keng qamrovli bo'lishi kerak deb hisoblashadi.

Fikrimizcha, "Sanoat korxonasini barqaror rivojlantirish mexanizmi" atamasiga aniqlik kiritish uchun, avvalo, "mexanizm", "barqarorlik" va "rivojlanish" kategoriyalarini batafsil ko'rib chiqish kerak. Dissertatsiyada ushbu kategoriyalar mohiyati to'liq ochib berilgan va mualliflik ta'riflari keltirilgan.

"Rivojlanish" kategoriyasining zamonaviy talqini ko'p qirrali va ziddiyatli sanaladi. Har bir muallif "rivojlanish" tushunchasini o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Bu har qanday holatda ham tabiiy o'zgarish yoki kimdir tomonidan o'zgarishga olib kelishi sifatida tushuniladi. Bizning fikrimizcha, rivojlanish obyekt mavjudlik bosqichiga qarab o'zgaradi. Shunday qilib, dastlabki bosqichda tabiiy o'zgarish yuz beradi, so'ngra obyektga turli xil atrof-muhit omillari ta'sir qiladi, bu esa mustaqil o'zgarish bilan birga obyektning sifat o'zgarishiga yordam beradi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchta yo'nalishni ajratishni nazarda tutadi: iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhit, bu ularning alohida ahamiyatini, o'zaro bog'liqlik va bog'liqlikning mavjudligini ko'rsatadi, shu bilan birga ularning kamida bittasini e'tiborsiz qoldirish butun tizim barqarorligini buzishi mumkin.

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishini ta'minlashda marketing tamoyillaridan foydalanish, samarali marketing tadqiqotlari natijalari asosida istiqbolda barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim rol o'ynaydi.

Umumiy holda strategiyaning ikki turini ajratish lozim – umumiy strategiyalar va xususiy strategiyalar. Strategik matritsalar o'rtasida keng tarqalgani portfel matritsalarini sanaladi. Tadqiqot jarayonida paxta tozalash sanoati korxonalarining kelgusidagi rivojlanishi bo'yicha marketing strategiyalari strategik tahlili amalga oshirilgan.

Dissertatsiyada amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan xo'jalik portfelining "Bozor ulushi – bozor o'sishi", "Bozor jalb etuvchanligi – raqobat ustunligi", "Tarmoq ko'rkamligi va raqobat ustunligi" va "Tarmoqning hayotiy sikli" matritsalarini mohiyatlari nazariy jihatdan ochib berilgan.

Ilmiy adabiyotlarda "raqobat", "raqobatbardoshlik" va "raqobatda ustunlik" atamalarini bo'yicha mualliflar tomonidan ko'plab ta'riflar hamda talqinlar berilgan bo'lib, dissertatsiyada ular tizimlashtirilgan. Umuman olganda, raqobat bozor

subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashishidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatsa, raqobatbardoshlik alohida toifadagi obyektlarning bozordagi talabga qay darajada mosligini tavsiflaydi, ya’ni, taklifning (tovarning) talabga mosligini, korxonaning raqobat ustunligini ta’minlash imkoniyatini, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy modelini tavsiflaydi, raqobatda ustunlik ma’lum bir sohada tashkilotga mijozlarni jalb qilish va uni saqlashga nisbatan imkoniyat beradigan yuqori ustunlik holatidir.

Dissertatsiyada strategik raqobat ustunliklarining to‘qimachilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishiga ta’sirini asoslab berish jarayonida raqobat ustunliklarining tasniflari ishlab chiqilgan.

To‘qimachilik korxonalarini boshqarishda marketing yondashuvini amalga oshirish kompleksli marketing strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish vositalarini tanlashni taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, “marketing strategiyasi – bu tashqi muhit o‘zgarishlariga korxonaning ichki imkoniyatlarini moslashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari majmuasidir”.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik korxonalarini rivojlantirishda raqobat strategiyalaridan foydalanish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati rivojlanishining hozirgi holati va muammolari tahlili, to‘qimachilik sanoati korxonalarini strategik mavqeyi va raqobatbardoshligi tahlili amalga oshirilgan, to‘qimachilik korxonalarini barqaror rivojlanishga marketing faoliyati samaradorligining ta’siri o‘rganilgan va modeli ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, respublika bo‘yicha 2023-yilning 1-yanvar holatiga 5852 ta to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo‘jalik subyektlari faoliyat ko‘rsatgan, shundan 11 foizi to‘qimachilik, 89 foizi tikuv-trikotaj buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar.

## 1-jadval


### **“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2018-2022-yillardagi innovatsion-investitsion faoliyati dinamikasi<sup>6</sup>**

t/p	Ko‘psatkichlap	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022 y.
1.	O‘zlashtirilgan innovatsion-investitsiya loyihalari soni	60	65	71	85	86
2.	Innovatsion-investitsiya loyihalari qiymati, mln.doll. Shu jumladan:	550,7	829,7	474,1	836,3	326,3
	O‘z mablag‘lari hisobiga	274,5	268,6	136,4	216,5	104,6
	Tijopat banklari krediti	262,7	536,8	234,4	140,8	56,4
	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	13,5	24,3	103,3	479,0	165,3
3.	Yaratilgan ish o‘rinlari soni	10654	15568	16855	22820	23000
4.	Innovatsion-investitsiya loyihalar eksport salohiyati, mln.doll.	253,6	377,3	187,4	255,8	101,2

<sup>6</sup> “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5285-sonli Farmoniga asosan 2018-2020-yillarda qiymati 1854,5 mln.doll. bo‘lgan 200 ga yaqin investitsion loyihalar amalga oshirildi. Bu loyihalarning aksariyati tayyor mahsulotlar, ya’ni bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj mato, gazlamalar, trikotaj mahsulotlari va tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan (1-jadval).

“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2018-2022-yillardagi innovatsion-investitsion faoliyati ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tarmoq bo‘yicha 2022 yilda 23000 ta yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan umumiy qiymati 326,3 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan 86 ta innovatsion-investitsiya loyihalari amalga oshirilgan.



**1-rasm. To‘qimachilik korxonasi barqaror rivojlanish darajasiga strategik raqobat ustunligi ta’sirining modeli<sup>7</sup>**

<sup>7</sup>Muallif ishlanmasi.

Tarmoqni yanada rivojlantirish maqsadida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish Dasturida 80000 ta yangi ish o'rinlari yaratishga mo'ljallangan umumiy qiymati 2437 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 225 ta innovatsion-investitsiya loyihalari amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu innovatsion-investitsiya loyihalari amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tahlilning keyingi bosqichida o'rganilayotgan "BUXORO ZARHAL TEKS" MCHJ korxonasi strategik mavqeyi jahon amaliyotida keng qo'llanilib kelinayotgan SPACE-tahlil usuli yordamida baholandi. Ushbu to'qimachilik korxonasi raqobatbardoshligi va strategik mavqeyi tahlili natijalariga tayanib, korxonaning raqobat marketing strategiyasini shakllantirish mumkin bo'ladi.

To'qimachilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, yuqorida aytib o'tilganidek, taktik va strategik raqobat ustunliklari asosida amalga oshirilishi mumkin. To'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirishning strategik raqobat ustunliklari va turlari va modellari turlari va guruhlari o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan qiziqarlidir.

Dissertatsiyada to'qimachilik korxonalarini strategik va taktik raqobat ustunliklarini hisobga olgan holda uning sanoat xususiyatlarini aks ettiruvchi to'qimachilik korxonasi rivojlanishining barqaror rivojlanishiga strategik raqobat ustunliklarining ta'siri modeli yaratilgan (1-rasm).

To'qimachilik korxonalarining strategik raqobat ustunligi va barqaror rivojlanish samaradorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro miqdoriy bog'liqliklarga asoslanib, uning asosida ko'zlangan natijani ta'minlash imkonini beruvchi marketing strategiyalarini shakllantirish amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning **"To'qimachilik korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda raqobat strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobida to'qimachilik korxonalarini rivojlanishiga strategik raqobat ustunligining ta'siri modeli va nazorat mexanizmini takomillashtirish amalga oshirilgan, to'qimachilik korxonalarini rivojlanish darajasiga omillar ta'siri sababini o'rganish uslubi, to'qimachilik sanoati korxonalarining raqobat ustunliklarining ahamiyatini baholash shkalasi, to'qimachilik korxonasi bozori raqobat xaritasini shakllantirish matritsasi ishlab chiqilgan, shuningdek, to'qimachilik korxonalarini strategik raqobat ustunligini ta'minlash asosida rivojlantirishning motivlashtirish mexanizmini takomillashtirish va uni prognozlash amalga oshirilgan.

Barqaror rivojlanish omillari hamda imkoniyatlarini izlab topish uchun, bizningcha, chuqurroq tarzda samarali usullarni qo'llagan holda keng qamrovli sababni o'rganishni amalga oshirish talab etiladi. Shuning uchun dissertatsiyada to'qimachilik sanoati korxonalarini ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning barqaror rivojlanish darajasiga omillar ta'siri sababini o'rganish uslubi ishlab chiqilgan. Ushbu uslubga asosan, to'qimachilik korxonalarini barqaror rivojlanish darajasiga omillar ta'siri sababini o'rganish uslubi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: "Sanoat korxonasi barqaror rivojlanish darajasiga omillar ta'siri sababini o'rganish", "Sanoat korxonasi mavjud

raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash va baholash”, “Strategik raqobatbardosh ustunliklarning sanoat korxonasi rivojlanishiga ta’sirini baholash”.

### 3-jadval

#### To‘qimachilik sanoati korxonasi rivojlanishining ichki darajasini baholash tarkibiy qismlari<sup>8</sup>

Ko‘rsatkich nomlanishi	Tavsifi
<b>1. IQTISODIY TARKIBIY QISM</b>	
<b>Investitsiyaning tavsifi</b>	
Resurs qaytimi	Korxonada faoliyatida 1 so‘m avanslashtirilgan mablag‘ga to‘g‘ri keluvchi sotuv hajmini tavsiflaydi: $K_{res.qay} = T_{max} / VB_{o'rt}$ bu yerda, $VB_{o'rt}$ – o‘rganilayotgan davrda korxonada umumiy kapitalining o‘rtacha qiymati.
<b>Ishlab chiqarish tavsifi</b>	
Fond qaytimi	Mayjud o‘rnatilgan asbob-uskunalar qay darajada foydalanilganlikni, ya’ni har bir so‘m asbob-uskunadan foydalanish natijasida qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarilganlikni ko‘rsatib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini asosiy ishlab chiqarish vositalari yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati kabi topiladi: $f_{f.qay} = T_{max} / F_{asos}$ bu yerda, $F_{asos}$ – korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlari yillik o‘rtacha qiymati.
<b>Moliyaviy tavsif</b>	
O‘z kapitali aylanuvchanligi ko‘effitsiyenti	korxonada o‘z kapitali aylanish tezligini tavsiflaydi: $O_{Oz} = T_{max} / SK_{o'rt}$ bu yerda, $SK_{o'rt}$ - o‘rganilayotgan davrda korxonada o‘z kapitali o‘rtacha qiymati.
<b>Tashkiliy tavsif</b>	
Yuqori malakali xodimlar ulushi ko‘effitsiyenti	Xodimlar umumiy sonida yuqori malakali xodimlar ulushini tavsiflaydi: $K_{yux} = YU_x / U_x$
<b>Marketing tavsifi</b>	
Mahsulot raqobatbardoshligi ko‘effitsiyenti	Mahsulotning raqobatda ustunlik darajasini tavsiflaydi
<b>Texnik-texnologik tavsif</b>	
Asosiy vositalar yaroqlilik ko‘effitsiyenti	asosiy fondlar jismoniy va ma’naviy eskirish darajasini tavsiflaydi
<b>2. IJTIMOYIY TARKIBIY QISM</b>	
Kadrlar barqarorligi ko‘effitsiyenti	mehnat jamoasining ijtimoiy tarkibiy qismdan ehtiyoji qondirilishi
<b>3. EKOLOGIK TARKIBIY QISM</b>	
Tashqi muhit ifloslanish intensivligi ko‘effitsiyenti	faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini tavsiflaydi
<b>4. XAVF-XATAR TARKIBIY QISMI</b>	
Strategik va taktik xavflarga barqarorligini (tashqi muhitning) tavsiflovchi integral ko‘effitsiyenti	strategik xavf-xatarlar ta’siri
	taktik xavf-xatarlar ta’siri

<sup>8</sup>Muallif ishlanmasi.



Tadqiqot jarayonida to‘qimachilik sanoati korxonalarining ichki barqaror rivojlanish holatini to‘rtta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar: iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va xavfning barqarorligini tavsiflaydigan resurs qaytimi, fond qaytimi, o‘z kapitali aylanuvchanligi koeffitsiyenti, yuqori malakali xodimlar ulushi koeffitsiyenti, mahsulot raqobatbardoshligi koeffitsiyenti, asosiy vositalar yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalar yaroqlilik koeffitsiyenti, tashqi muhit ifloslanish intensivligi koeffitsiyenti, strategik va taktik xavflarga barqarorligini (tashqi muhitning) tavsiflovchi integral koeffitsiyentlarining integral ko‘rsatkich bo‘yicha baholashning takomillashtirilgan usuli taklif etilgan (3-jadval).

Iqtisodiy tarkibiy qism birlamchi integral ko‘rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$i.int = \sqrt[6]{K_{res.qay.} * K_{f.qay.} * O_{uz} * K_{yux} * K_{m.r.} * K_{as.yar.}} \quad (1)$$

Umumiy integral ko‘rsatkichning qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$umumiy. = \sqrt[4]{U_{i.int.} * ijt. * ekol. * xx} \quad (2)$$

bu yerda,  $i.int.$  - iqtisodiy tarkibiy qismning jamlama ko‘rsatkichi;

$ijt.$  - ijtimoiy tarkibiy qismning jamlama ko‘rsatkichi;

$ekol.$  - ekologik tarkibiy qismning jamlama ko‘rsatkichi;

$xx$  – xavf-xatar tarkibiy qismning jamlama ko‘rsatkichi.

To‘qimachilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish turi va darajalarini tavsiflovchi umumiy integral koeffitsiyentlarning qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan.

**4-jadval**

**To‘qimachilik sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish turi va darajalarini tavsiflovchi umumiy integral koeffitsiyentlarning qiymatlari<sup>9</sup>**

Daraja	Barqaror rivojlanish turlari	Barqarorlik darajasi nomlanishi	Barqaror rivojlanish umumiy integral ko‘rsatkichi qiymati
1	dinamik	yuqori barqaror rivojlanish	$0,8 < U_{umumiy} \leq 1$
2	dinamik statistik	normal barqaror rivojlanish	$0,6 < U_{umumiy} \leq 0,8$
3	statistik	normal barqaror rivojlanish	$0,4 < U_{umumiy} \leq 0,6$
4	-	kritik barqaror rivojlanish	$0,3 < U_{umumiy} \leq 0,4$
5	-	inqirozli barqaror rivojlanish	$U_{umumiy} \leq 0,3$

<sup>9</sup>Muallif ishlanmasi.

Uslubiyatni sinovdan o'tkazish uchun empirik asos sifatida Toshkent shahri va Buxoro viloyatining quyidagi hududiy tarmoq korxonalarini tanladi: "BUXORO ZARHAL TEKS" MCHJ, "KAMALAK SHABNAM TEKS" MCHJ, "TEXTILES SPEKTRUM COLORS" qo'shma korxonasi, "BETLIS TEKSTIL" MCHJ, "FULL COTTON" MCHJ. Tadqiqotda qatnashgan to'qimachilik korxonalarida barqaror rivojlanish darajasini tavsiflovchi umumiy integral koeffitsiyenti 0,091-0,804 oralig'ida bo'lgan. 2022-yilda esa biz tomondan barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha berilgan takliflarni amaliyotga qo'llash natijasida holat bir qadar yaxshilangan.

Ushbu yilda "BUXORO ZARHAL TEKS" MCHJda barqaror rivojlanish darajasi "yuqori barqaror rivojlanish" dinamik darajasida bo'lgan bo'lsa, "FULL COTTON" MCHJda barqaror rivojlanish darajasi "normal barqaror rivojlanish" dinamik/statistik, "KAMALAK SHABNAM TEKS" MCHJ, "TEXTILES SPEKTRUM COLORS" qo'shma korxonasi, "FULL COTTON" MCHJ, "BETLIS TEKSTIL" MCHJda barqaror rivojlanish darajasi "normal barqaror rivojlanish" statistik darajasi kuzatiladi.

Tadqiqot jarayonida to'qimachilik mahsulotlari bozorining muayyan ulushini ta'minlash uchun zarur bo'lgan savdo hajmini oshirish strategik maqsadiga erishish uchun to'qimachilik korxonasi uchta sohada fokuslashtirilgan o'sish strategiyasini amalga oshirishi lozimligi aniqlandi:

a) bozor mavqeyini mustahkamlash (bir xil mahsulot bilan bir xil bozor): to'qimachilik korxonasi mavjud bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, yangi mijozlarni qidirish va jalb qilish;

b) bozorni rivojlantirish (shu mahsulot uchun yangi bozor): respublikamiz va xorijda mahsulotni sotish geografiasini kengaytirish;

